

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

70910201 - "Akusherlik va ginekologiya" mutaxassisligi (shifokor akusher-ginekolog)

MALAKA TAVSIFNOMASI

Toshkent - 2021

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiyot va farmasevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil "16" avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil "31" avgust dagi 217 -sonli buyrug'ining 3 ilovasi bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar.....	5
1.1. Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan.....	5
1.2. 70910201 – Akusherlik va ginekologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi.....	6
1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan.....	7
1.4. Shifokor akusher-ginekolog malaka tavsifnomasi ishlatiladi	7
1.5. Shifokor akusher-ginekolog kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart sharoitlari.....	7
2. Shifokor akusher-ginekologga malaka tavsifnomasi.....	8
2.1. Shifokor akusher-ginekolog bilimi.....	8
2.2. Shifokor akusher-ginekolog ko'nikmasi.....	9
2.3. Asosiy nazariy bilimlar.....	9
3. Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) shifokor akusher-ginekologning o'rni.....	11
3.1. Shifokor akusher-ginekologning majburiyatlari.....	11
4. Sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy yordam hajmi.....	12
4.1. Ko'rsatiladigan (<i>tibbiy yordam turi</i>) darajasiga ko'ra shifokor akusher-ginekolog tomonidan bajariladigan faoliyat.....	12
4.2. Davolash, profilaktika, diagnostika va h.k. tadbirlarning o'tkazilishida ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati.....	12
5. Shifokor akusher-ginekolog ega bo'lishi shart amaliy ko'nikmalar.....	17
6. Shifokor akusher-ginekologning munosabatlariga qo'yilgan talablar.....	19



1.Umumiy qoidalar

Respublikamizda va zamonaviy global jamiyatda onalik va bolalikni ahamiyati beqiyosdir. Tug'ilish sur'atlari, ona va bola kasallanish ko'rsatkichlari har qanday mamlakatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tsivilizasiyasi bosh ko'rsatkichi hisoblanadi. Bexatar onalik va bolalikni takomillashtirish ko'p Jihatdan akusher-ginekolog kasb egalarini rolini va ahamiyatini oshirishdan, dunyoning etakchi davlatlarining ilg'or tajribalaridan hamda ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda akusherlik va ginekologiya sohasini uzluksiz ta'lim orqali yaxshilashdan iborat.

“Akusherlik va ginekologiya” mutaxassislari hozirgi bozor o'zgarishlarini e'tiborga olgan holda tibbiyotda ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish, ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan tadbirlarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davridagi fiziologik va patologik holatlarini tashhishlash, konservativ va jarroxlik yuli bilan davolash, asoratlangan homiladorlik va tug'rukda tez tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini va ayollarda reproduktiv tizim a'zolari, ginekologik kasalliklarni va neyroendokrin sindromlarni tashhishlash, konservativ va jarroxlik yuli bilan davolash, asoratlangan ginekologik kasalliklarda tez tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini to'liq egallagan, yukori malakali akusher ginekolog mutaxassisi sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatishni bilimga ega bo'lish. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish, aholi salomatligini muhofazalash bo'yicha qabul qilingan davlat va hukumat qarorlarini bilish va ularni amaliyotda qo'llash. Menejment funksiyalarini chuqur o'zlashtirish. Aholi salomatligini mustahkamlash va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish tajribalarini rivojlantirish. Aholiga yuqori malakali, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

Ushbu akusher-ginekolog shifokori malakaviy tavsifnomasi zamonaviy talbalarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlanishida asosiy hujjat hisoblanadi.

1.1.Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bulib, kuyidagilar asosida tuzilgan:

Malaka tavsifi akushrluk va ginekologiya tayyorgarligi va faoliyatiga birlashtirilgan, tizimlashtirilgan talablarni ta'minlaydi

Bu malaka tavsifi Davlat me'yoriy hujjati quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi PQ-2956-sonli “Tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4985-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 718-sonli "tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida ko'rilayotgan profilaktika choralarning samaradorligi uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5590-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martda "O'zbekiston Respublikasining birlamchi sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2857-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "tibbiy va farmasevtik ta'lim va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 6 mayda PQ-4310-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentyabrdagi "tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 769-sonli qarori.

2018 yil 5 iyunda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash buyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyulda "koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6035-sonli farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda "yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4063 – sonli qarori;


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 aprelda PQ-4666-sonli "tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrda "birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 16 iyulda "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-sonli buyrug'i.

1.2. Shifokor akusher-ginekologni malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzulgan:

– mutaxassislik bo'yicha tayinlanishi va shifokor faoliyatining asosiy shartlari;



– shifokor akusher-ginekolog tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan kasbiy, ijtimoiy vazifalar, amaliy ko'nikmalar va ko'nikmalar tizimi ko'rinishidagi malaka talablari;

– shifokor akusher-ginekolog sertifikatiga qo'yiladigan talablar;

– shifokor akusher-ginekolog oliy tibbiy ta'lim muassasalarida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini birlashtirish, bu O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida shifokor akusher-ginekologning faoliyati va faoliyati sifati uchun javobgarlikni kuchaytiradi;

– “qayta axborot” mexanizmini amalga oshirish bo'yicha shifokor akusher-ginekologning amaliy faoliyatini baholash mezonlari.

1.3.Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan

Ushbu malaka tavsifnomasi quyidagilar uchun mo'ljallangan

- tibbiy oliygoxlar va ularning filiallari;
- sog'liqni saqlashni boshqarmalari;
- ushbu mutaxassis mexnatidan foydalanuvchi vazirliklar, boshqarmalar, muassasalar va tashkilotlar;
- sog'liqni saqlash maxalliy boshqarmalari;
- tibbiy-profilaktika muassasalari (ko'p tarmoqli Markaziy poliklinika, akusher-ginekologik komplekslar, tibbiy-profilaktika muassasalarining akusherlik va ginekologik bo'limlari, tibbiy markazlarining ginekologik bo'limlari, Respublika perinatal markazi va filiallari, shaxar perinatal markazlari, tibbiy muassasalar);
- Respublika ilmiy-ixtisoslashgan markazlari

1.4. Shifokor akusher-ginekolog malaka tavsifnomasi ishlatiladi:

- o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va ixtisoslashtirishda, ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan etijojni bashorat qilishda;

- kasbiy faoliyatni tanlash, joylashtirish, qayta tayyorlash, malaka oshirishni takomillashtirishda;

– 70910201–Akusherlik va ginekologiya yo'nalishi bo'yicha magistr larni yakuniy attestasiyadan o'tkazish uchun Davlat imtihon komissiyasining maqsad va vazifalarini aniqlashda;

– oliy ta'lim muassasalarida va diplomdan keyingi tibbiy ta'lim muassasalarida tegishli fanlar bo'yicha o'quv rejalari, o'quv dasturlari va ishchi dasturlarni ishlab chiqishda;

– shifokor akusher-ginekologning kasbiy faoliyatini baholash va nazorat qilib borishda.



1.5. Shifokor akusher-ginekologning kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart sharoitlari:

- akusher-ginekolog tor doiradagi malakali mutaxassis xisoblanadi va xomiladorlar patologiyalarini va ginekologik kasalliklarini tashxislash, davolash chora-tadbirlarini olib borish uchun etarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

- akusher-ginekolog xomiladorlar va ayollar sog'liqni saqlash sohasida o'z professional faoliyatini Sog'liqni saqlash vazirligining tibbiy-profilaktika muassasalarining tegishli yo'nalish bo'g'inlarida olib boradi:

– ko'p tarmoqli Markaziy poliklinikalarda, kasalxonalarda, tibbiy markazlarda va tibbiy-profilaktika muassasalarining akusherlik va ginekologiya bo'limlarida;

– oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar faoliyat yuritishi lozim bo'lgan sog'liqni saqlash tizimining tashkilot va muassasalarida akusher-ginekolog lavozimida;

- oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, tegishli nomlanishda ko'zda tutilgan oliy tibbiy ma'lumotga ega mutaxassislar egallashi mumkin lavozimlarda ishlaydilar.

2. Shifokor akusher-ginekologni malaka tavsifnomasi

2.1. Akusher-ginekolog bilimi:

– sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati;

– O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (kontsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari);


– sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar;

– sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;

– tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo'nalishlari, xomiladorlar patologiyasini va ginekologik kasalliklarini diagnostikasi va davolash yangi texnologiyalari;

– homiladorlik fiziologik va patologik holatlarining, ginekologik kasalliklarning epidemiologik ma'lumotlari, etiologik va xavf omillari, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasnifi, diagnostikasi, shu jumladan erta diagnostikaning zamonaviy usullari, kechishining klinik variantlari, turli bosqichlarda davolash sxemalari, davolashning har xil bosqichlarida differentsiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash organlarining terapevtik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlari;

– ginekologik kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezining zamonaviy teoriyasi, tasnifi,



– akusherlik va ginekologiya sohasida davolash jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, Internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida;

– operasion tizimlar, elektron pochta, konferentsiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish;

– vrachlik amaliyotida "komanda" bo'lib ishlash tamoyillari;

– ginekologik kasalliklarining va xomiladorlar patologiyalarining zamonaviy laborator-instrumental va funktsional tekshirish usullari;

– sog'liqni saqlash tizimining davolash va profilaktika tashkilotlarida tashxislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda xomiladorlar va ayollarning tibbiy muammolari bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish;

-akusherlik va ginekoloiya sohasidagi tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

-sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'inlarida akusherlik va ginekoloiya sohasida kompleks masalalarni echishni o'z ichiga oladi.

2.2. Shifokor akusher-ginekolog ko'nikmasi:

– ginekologik bemorlarni va xomiladorlarni yuqori malakali so'rab-surishtirish, ayollarga zarur davolash-diaagnostik tadbirlar hajmi va to'plamini aniqlash;

– ginekologik bemorlarga va xomiladorlarga davolash va diagnostik muolajalarni mustaqil amalga oshirish, qo'shimcha tekshirish (laborator, morfologik, funktsional, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik) natijalarining interpretatsiyasi, ginekologik kasalliklari va ularning asoratlarini maslahat beruvchi poliklinika, akusherlik va ginekologik yo'nalishdagi stasionar, reanimasiya va intensiv terapiya bo'limlarida kompleks individuallashtirilgan davolashni mustaqil amalga oshirish;

– ginekologik kasalliklar va xomilador patologiyasini klinikasida ayrim reanimasion tadbirlar va shoshilinch holatlarda yordamni amalga oshirish;

– ginekologik kasalliklarda va xomiladorligi patologik kechgan ayollarga reabilitasion tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish, tibbiy hujjatlarni yuritish;

– ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish maqsadida klinik audit o'tkazish.



2.3. Asosiy nazariy bilimlar

Shifokor akusher-ginekolog bilishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash sohasidagi qonunlar hamda sog'liqni saqlash organlari va muassasalari faoliyatini belgilaydigan direktiv hujjatlar majmui;

- Mamlakatda akusher-ginekologik yordamni, davolash-profilaktik muassasalar ishini tashkil etish, aholiga shoshilinch va tez tibbiy yordamni tashkil etishning umumiy masalalari;

- Normal va patologik anatomiya, normal va patologik fiziologiya, hamda ayol organizmning funksional tizimlarining o'zaro bog'liqligi va ularni boshqaruv darajasining umumiy masalalari;

- Suv-elektrolit almashinuvi, kislota-ishqor muvozanati: ularning buzilish turlari va davolash printsiplarining asoslari;

- Fetoplasentar tizimining fiziologiyasi va patofiziologiyasi, antenatal parvarishning asoslari, xomiladorlikning meyoriy va patologiyada ko'rsatkichlari;

- Ayollarda asosiy ginekologik kasalliklarning klinik simptomatikasi va patogenezini, ularning profilaktikasi, diagnostika va davosi.

- Xomiladorlik patologiyalar va ginekologik kasalliklar klinikasida terapiyaning asoslari, keltirib chiqargan asoratlar va ularni bartaraf qilish usullari;

- Ginekologik kasalliklarni nomedikamentoz davolash, fizioterapiya, jismoniy-tarbiya va shifokor nazorati asoslari, sanator-kurort davoga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar;

- Xomilador ayollarni rasional ovqatlanish asoslari, ginekologik bemorlarning dietoterapiya tamoyillari;

- Sog'lom ayollarda va xomiladorlarda dispanser nazorati, profilaktika muammolari;

- Xomiladorlikda patologik jarenni va ginekologik kasallik haqida ma'lumot olish, bemorni tekshirishda ob'ektiv usullarni qo'llash, kasallikning umumiy va o'ziga xos belgilarini aniqlash;

- Bemor ahvolidagi og'irlik darajasini aniqlash, bemorni ushbu holatdan chiqarish uchun zarur choralarni qo'llash, reanimasion choralarning hajmi va ketma-ketligini aniqlash, kerakli shoshilinch yordamni ko'rsatish;

- Tekshiruvning maxsus usullarini aniqlash (laborator, rentgen, va funksional);

- Gospitalizasiyaga ko'rsatmani aniqlash va uni tashkillashtirish;

- Differentsial tashxis o'tkazish, klinik tashxisni, bemorni davolash rejasi va taktikasini asoslash;

- Ultratovush tekshirish, dopplerometriya, endoskopik, rentgenologik tekshiruv ma'lumotlarini baholash va ularga xulosa berish;

- Kerakli dori vositalarini va boshqa zaruriy chora-tadbirlarni belgilash;

- Xomiladorlarni dekret ta'tiliga chikishni va ginekologik bemorning mehnatga layoqatsizlikgi (vaqtinchalik yoki doimiy) ni aniqlash, boshqa ishga o'tkazishga ko'rsatma berish;

– Yuqumli kasallik aniqlanganda epidemiyaga qarshi zarur choralarni o'tkazish;

– Sog'lom xomiladorlarda va xamma yoshdagi ayollarda va bemorlarda dispanser nazoratini o'tkazish, natijalarni tahlil qilishni bilish;

– Sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunlarda ko'zda tutilgan tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish.

– Respublikada akusher-ginekologik yordamni tashkil qilishning umumiy masalalari, tibbiyot muassasalarining faoliyati, tez-tibbiy yordam ishini tashkil qilish;

– asosiy xomiladorlik patologiyalarining va ginekologik kasalliklarning klinik simptomatikasi, ularning profilaktikasi, tashxislash va davolash printsiplari;

– tekshirish standartlar asosida zaruriy laborator va instrumental tekshirish usullarini tayinlash va ularning natijalarini tahlil qilish;

– qiyosiy tashxis o'tkazish, klinik tashxisni asoslash, davolash standartlari asosida adekvat davo tayinlash;

– sog'lom ayollarni va bemolarni dispanser ko'rikdan o'tkazish;

– sog'liqni saqlash tizimi tomonidan qabul qitlingan tibbiy hujjatlarni yuritish;

– yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi zaruriy tadbirlarni o'tkazish.

3. Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) shifokor akusher-ginekologni o'rni

Shifokor akusher-ginekolog faoliyatining asosiy yo'nalishi axoli sog'lig'ini saqlash, homiladorlik patologik holatlarini, ginekologik kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash xisoblanadi. Buning uchun shifokor akusher-ginekolog tomonidan quyidagi ishlar olib boriladi:

Aholining tibbiy ongini oshirish;

– Sog'lom turmush tarzi targ'iboti;

– Ginekologik kasalliklar oldini olish chora tadbirlarini o'tkazish;

– Xomiladorlarda patronaj utkazish;


– Ginekologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida axolini profilaktik ko'rikdan o'tkazish;

– Ginekologik kasalliklarga chalingan ayollarning dispanser kuzatuvini olib borish;

– Axoli sog'ligi holatini tahlil qilish.

3.1. Shifokor akusher-ginekologning majburiyatlari

Kasallik to'g'risida axborot yig'ish. Bemorni tekshirish uchun ob'ektiv uslublarni qo'llash. Kasallikning umumiy va maxsus belgilarini aniqlash. Tibbiy yordamni tashkil etish standartlari asosida kasallikni tashxislash va bemorning umumiy holatini



baholash chora-tadbirlarini olib borish. Gospitalizasiya uchun ko'rsatmani aniqlash va uni tashkillashtirish. Differentsial tashxis o'tkazish.

Klinik tashxisni asoslash, bemorni olib borish taktiksi va rejasini asoslash.

Davolash standartlari asosida kasallikni davolash uchun zaruriy chora-tadbirlarni bajarish. Kasalliklarni rivojlanishni xavf omillarini aniqlash. Yuqori xavfi bulgan ayollarda birlamchi profilaktikani olib borish.

Yuqumli kasallik aniqlanganda epidemiyaga qarshi zaruriy tadbirlarni o'tkazish. Sog'lom aholi va bemorlarni dispanser ko'rikdan o'tkazish.

4. Sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy yordam hajmi

4.1. Ko'rsatiladigan (tibbiy yordam turi) darajasiga ko'ra shifokor akusher-ginekolog tomonidan bajariladigan faoliyat:

Sog'liqni saqlashning barcha tizimida xomiladorlar va ayollar o'rtasida keng tarqalgan patologiyalar va kasalliklar profilaktikasi, erta tashxisi, dastlabki tibbiy yordam, rasional davolash, reabilitasiya va dispanser kuzatuv.

Aholining tibbiy ma'lumotini bilimini oshirish;

Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish (jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, rasional ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish va h.k.);

Chekish, narkomaniya va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish singari xavf omillari qarshi kurashish;

Ayollar o'rtasida profilaktik tadbirlar o'tkazish;

Homiladorlikga va tug'ruqqa qarshi ko'rsatmalarni aniqlash, tug'ruqdan keyingi davrda ayollarni reabilitasiya qilish.

Surunkali ginekologik kasalliklari bor ayollarni dispanser kuzatuvga olish;

Onkologik kasalliklarni erta tashxislash, ularning profilaktikasini o'tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Dori vositalari hamda alternativ davo usullarining rasional ishlatilishini nazorat qilish.

Bemorlarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligini aniqlash, sanator davoga ko'rsatmani aniqlash.

Ayollarga, ularning ahvoli va yoshini hisobga olgan holda tibbiy-psixologik yordamni tashkillashtirish


4.2. Davolash, profilaktika, diagnostika va h.k. tadbirlarning o'tkazilishida ko'zda tutilgan kasalliklar ro'yxati:



Shifokor akusher - ginekolog quyidagi xomiladorlik patologiyalarda va ginekologik kasalliklarda tashxis qo'yishi va zarur davo muolajalarni o'tkazishni bilishi lozim:

Akusherlik bo'yicha:

- akusherlik va Perinatalogiya zamonaviy funktsional diagnostika usullari;
- fiziologik homiladorlikdagi o'zgarishlar va fetoplasentar tizim tuzilishi, rivojlanish bosqichlari; ontogenezning qaltis davrlari;
- homiladorlik va tug'ruq vaqtidagi asoratlar rivojlanishi omillarini;
- homilaning yurak faoliyatini baholash usullarini; homila o'sishi monitoringi, o'sishdan orkada kolish sindromini, homila nuqsonlarini skriningini, homila holati va akusherlik xavfni baholashni;
- gormonal va immunologik tekshiruvlarni, kolpositologiyani, endoskopik tekshiruv usullarini;
- tug'ruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishini, homila boshi bilan kelganda tug'ruq biomexanizmini;
- tug'ruqdan keyingi davr fiziologiyasi, klinik kechishini;
- homila gipoksiyasi va distressi, chaqaloq asfiksiyasi, diagnostika usullari va davolash printsiplari, chaqaloq reanimasiyasi tamoyillarini;
- homila va chaqaloqlarda Rh-antigen va AB0 tizim buyicha gemolitik kasalligini;
- homiladorlar qusishi, etiologiyasi va patogenezini, ko'p va kam uchraydigan toksikozlar klinikasini, davolashni, homiladorlar qusishining kompleks terapiyasini;
- homiladorlardagi gipertenziv buzilitshlarni zamonaviy tashxislash, davolash va profilaktika usullarini, magnezial va antigipertenziv davo, homiladorlik va tug'ruqni olib borish;
- homiladorlardagi gipertenziv buzilitshlarni asoratlarini (tarqalgan tomir ichi qon ivish (TTIQI) sindromi, HELLP-sindrom, homiladorlar jigar yog'li gepatozini) tashxislash, davolash va profilaktika usullarini, reabilitasiyasini;
- yurak, qon-tomir kasalliklarda homiladorlikning kechishi: orttirilgan va tug'ma yurak nuqsoni, gipertoniya kasalligi, arterial gipotenziya, varikoz kasalligi; homiladorlikni olib borish va kuzatish tamoyillari, muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma, tug'dirishda akusherlik taktikasini tanlashni;
- jigar (turli etiologiyali hepatitlar, tsirroz, xolestaz) va buyrak (siydik yullari infeksiyasi, o'tkir asoratlangan va asoratlanmagan pielonefrit, glomerulonefrit, siydik tosh kasalligi) kasalliklarida homiladorlikni kechishi va tug'ruqni olib borishni;
- qon kasalliklarida (kamqonliklar, leykozlar, Verlgof, Villebrand kasalliklari) homiladorlikni kechishi va tug'ruqni olib borishni;
- qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklarida va semizlikda homiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borishni;
- homiladorlikda nafas olish kiyinlashishida (bronxial astma, o'tkir respirator infeksiya, pnevmoniya) homiladorlikning kechishi, muddatidan oldin homiladorlikni to'xtatishga ko'rsatma va tug'ruqni olib borishni;
- homiladorlik va o'tkir qorinni (appendisit, o't-tosh kasalligi; o'tkir ichak tutilishi; mioma tugunini nekrozi, tuxumdon kistasi oyoqchasining buralishi, peritonit);



-homilani ko'tara olmaslik turlari (odatiy homilani ko'tara olmasligi, rivojlanmagan homiladorlik, muddatdan oldingi tug'ruq, qog'onoq pardalarini muddatdan oldin yirtilishi, istmiko-tservikal etishmovchilik) etiopatogenezini, klinikasi va ularni davolash usullarini, muddatiga etmagan homiladorlikda kesar kesishni;

-onadan homilaga OITV infektsiya transmissiyasini, antiretrovirusli terapiyani, tug'dirish usullarini, onadan homilaga o'tuvchi OITV infektsiyalar profilaktikasini, tibbiy xodimlarga OITV infektsiya o'tishining oldini olish chora-tadbirlarini;

-akusherlikda qon ketish sabablarini, normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishi (NJYBK) va yo'ldoshning oldinda kelishining klinikasi, tashxislash, akusherlik taktikasi va profilaktikasini;

-yo'ldoshning birikish nuqsonlarini (yo'ldoshning qattiq birikishi va o'sib kirishining) klinikasi, tashxislash va akusherlik taktikasini,

-yo'ldosh qismlari ushlanib qolishi yoki ajralgan yo'ldoshning qisilib qolishining klinikasi, tashxislash va davolash taktikasi;

-gipo - va atonik qon ketishining klinikasi, tashxislash va davolash;

-tashqi jinsiy azolar, oraliq, qin va bachadon bo'yni jarohatining sabablari, tashxislash va davolashni, bachadon yorilishining sabablari, tashxislash, qiyosiy tashxislash, jarrohlik usuli bilan davolash va profilaktikasi;

- bachadon tashqariga chiqishi sabablari, davolash;

-simfiz ochilishi va yorilishi klinikasi, tashxislash va davolash;

-akusherlik oqmalari: etiopatogenez, tashxislash va davolash, profilaktika;

-gemorragik shokning etiopatogenezini, bosqichlari, tashxislashni, davolash;

-tarqalgan tomir ichi qon ivish (TTIQI) sindrom rivojlanish sabablari va mexanizmini, o'tkir TTIQI-sindrom kechishi tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolashni, TTIQI-sindrom surunkali turlarini tashxislash va davolash;

-tug'ruqda ko'p qon yo'qotgan ayollarda trombopatiyani oldindan baholash;

-muddatdan o'tgan homiladorlikni sabablari, tashxislash va davolash;

-indusirlangan tug'ruqqa ona va homila tomonidan ko'rsatmalar, tug'ruqni qo'zg'atish muddati va usulini; indusirlangan tug'ruqni olib borish taktikasini, og'riqsizlantirish usulini, antenatal homila o'limida indusirlangan tug'ruqni olib borish taktikasi;

-zamonaviy akusherlikda tor chanoq, tug'ruqdagi homila boshi va ona chanog'ini disproportsiyani tashxislashni, tug'ruqni olib borishni, asoratlar;

-preliminar davr, tashxislash usullari, preliminar davrda homiladorni olib borish taktikasi;

-tug'ruq faoliyati nuqsoni tasnifi, uning sabablari, klinikasi va har xil turdagi tug'ruq nuqsonlarida tug'ruqni olib borish taktikasini, tug'ruqni boshqarishda qo'llaniladigan vositalarning farmokodinamikasi va farmokokinetikasi;

-ko'p homilalikda, homilaning ko'ndalang va qiyshiq joylashishida, homiladorlikning kechishi va tug'ruq;

-ko'psuvlilik va kamsuvlilikda, bachadon chandig'ida, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy a'zolar patologik o'zgarishida, elkalar distosiyasida, homila antenatal o'limida va boshqa asoratli omillarda homiladorlikning kechishi va tug'ruqni olib borish;

-kog'onok suvlari bilan emboliyasi va o'pka arteriyasi tromboemboliyasi sabablari, klinikasi, tashxislash va davolash;

-akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraksiya, homilani chanog'idan ekstraksiya qilish jarrohligiga ko'rsatmani, jarrohlikdan keyingi davrini olib borish;

-kesar kesish jarrohligiga ko'rsatma, operasiyadan keyingi davrni olib borish, asoratlari;

-tug'ruqdan keyingi septik kasalliklar lokal shakllarining etiopatogenezi, klinik turlari, tashxislash va davolash, mastit va uning profilaktikasini, tug'ruqdan keyingi septik kasalliklarning generallashtirilgan shakllari, kesar kesishdan keyingi akusherlik peritoniti, sepsis va toksik shokning etiopatogenezi, klinik kechishi, tashxis, davolash, profilaktikasi.

Ginekologiya bo'yicha:

-ayollar reproduktiv tizimining tuzilishi, rivojlanish davrlari, faoliyati va uning boshqarilishi;

-ginekologik kasalliklar simptomatologiyasini, bioximik, gormonal, bakteriologik, mediko – genetik, radioimmun, klinik tashxislash usullarini;

-ginekologik kasalliklarni instrumental tashxislash usullari: punktsiya, biopsiya, ba'zi endoskopik tekshiruvlarni;

-ginekologik kasalliklarni nur tashxislash usullari (KT, MRT, kraniografiya, gisterosalpingografiya)ni;

-ginekologik kasalliklarni ultratovush tashxislash usullari, transabdominal va transvaginal exografiyasini;

-ayollar reproduktiv tizimi buzilishini funktsional tashxislash usullarini, asosiy tasnifi, sabablarini;

-jinsiy differentsiyallanish buzilmagan holda jinsiy rivojlanish nuqsoni, klinikasi, tashxislash va davolash (vaqtdan oldin jinsiy etilish, jinsiy etilishdan orqada qolish)ni;

-jinsiy differentsiyallanish buzilganda jinsiy rivojlanish nuqsoni, klinikasi, tashxislash va davolash (tug'ma adrenogenital sindrom (TAS), viril sindrom, gonada disgeneziyasi (GD), qin va bachadon rivojlanish nuqsonlari)ni;

-buyrak usti giperandrogenimiyasi patogenezi, klinika, qiyosiy tashxislash va androgenital sindromning postpubertat shakli, davolashni;

-birlamchi va ikkilamchi amenoreya tasnifi, klinik shakllari, tashxislash va davolashni;

-tuxumdonlar rezistentligi sindromi va tuxumdonlar bo'shab qolganlik sindromi, patogenezi, klinika, tashxislash va davolashni;

-birlamchi tuxumdonlar polikistozi patogenezi (shteyn–Levental sindromi) klinikasi, tashxis, davolash va profilaktikasini, ikkilamchi tuxumdonlar polikistozi klinikasi, tashxis, davolash va profilaktikasini;

-bachadondan qon ketish sabablari, ularning tasnifi (bachadondan anomal qon ketish va bachadondan organik qon ketish), pubertat yoshdagi, reproduktiv yoshdagi va premenopauzal yoshdagi bachadondan anomal qon ketishining (BAQK) etiopatogenezi, klinika, tashxis, profilaktika va oqibatini, BAQKni davolash

tamoyillarini, bachadondan organik qon ketishi sabablari, tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolashni;

-menstruasiya oldi sindromi: uchrash soni, patogenez, klinik shakllari, tashxislash, davolash, oqibatini;

-postkastrasion sindromi: uchrash soni, patogenez, klinik shakllari, tashxislash, davolash, oqibatini;

-klimakterik sindromi, simptomatika, patogenez, davolash, nofarmokologik davosi, nogormonal vositalar bilan davolash va gormonal terapiya, shuningdek estrogen-defisit metabolik buzilishni davolash (urogenital sindrom, atrofik kolpit va osteoporoz) va profilaktikasini;

-jinsiy a'zolar pastki bo'limining yallig'lanish kasalliklari klinik shakllari, simptomatikasi, tashxislash va davolashni, jinsiy a'zolarining xlamidioz, ureaplazmoz va virusli kasalliklarini, kichik chanoq a'zolari nospesifik yallig'lanish kasalliklari, infeksiya tarqalish yo'llari, tasnifi, klinika, tashxislashni, spesifik yallig'lanish kasalliklari (gonoreya, sil, OITS) klinikasi, tashxisini, ichki jinsiy a'zolar yallig'lanish kasalliklarini davolashning umumiy tamoyillarini, TORCH-infeksiyasi va ularning homiladorlik davrida olib keladigan asoratlari va davolash tamoyillarini;

-abortlar tasnifi, etiopatogenezi, olib borish, asoratlari, medikamentoz abortni olib borish, asoratlari;

-trofoblastik kasallik tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash usullarini;

-rivojlanmagan homiladorlik klinikasi, tashxislash va davolash usullarini;

-ektopik homiladorlikni, naydagi homiladorlik tasnifi, etiopatogenezi, klinik shakllari, buzilgan naydagi homiladorlikni klinik kechish xususiyati, simptomatikasi, qiyosiy tashxislash, Jarroqlik va Jarroqsiz davolash usullarini, ektopik homiladorlikning kam uchraydigan turlari, shuningdek bachadon bo'ynidagi homiladorlikni, ektopik homiladorlik prognozi va kechki asoratlari;

-tashqi jinsiy a'zolarining asosiy fon va rakoldi kasalliklari (krauroz, vulva leykoplakiyasi) tashxislash va davolashni, bachadon bo'yni fon va rakoldi kasalliklari, klinikasi, tashxis va davolashni;

-endometriy rakoldi kasalliklari (atipik bezli giperplaziya, neyroendokrin sindrom fonida bezli giperplaziya qaytalanishi)ni, endometriy rakoldi kasalliklarining klinikasi, tashxislash, gormonal va jarroxlik usulli bilan davolashni;


-endometrioz tasnifi, etiologiyasini, endometriozning har xil shakllarining klinik kechishi, zamonaviy usullar bilan tashxislash, davolash tamoyillari, profilaktikasini;

-bachadon miomasi, tasnifi, patogenez, klinikasi, zamonaviy usullar bilan tashxislash, konservativ va jarroxlik davolashga ko'rsatmalar, oqibatini;

-tuxumdonlar xavfsiz o'smalarini tasnifi, klinikasi, tashxislash, asoratlari, davolashni, tuxumdonlar oddiy kistalarini tashxislash va davolash tamoyillarini;


-bepushtlikning tasnifi, etiopatogenezi, zamonaviy tashxislash usullari va davolashni, ayollar bepushtligini zamonaviy davolash usullarini (ovulyasiyani stimullash, ekstrakorporal urug'lantirish, sun'iy inseminasiyasi);

-oilani rejalashtirish tamoyillari, kontratsepsiya usullarining tasnifi.



5. Shifokor akusher-ginekologni ega bo'lishi shart amaliy ko'nikmalar

- anamnez yig'ish, tashqi akusherlik ko'rikni o'tqazish;
- tibbiy – genetik, gormonal. immunologik tekshiruvlar o'tqazish;
- homila xolatini tashxislash, homilaning yurak faoliyatini baholash;
- homiladorlik va tug'ruqning muddatini aniqlash;
- homiladorlik va fetoplasentar tizim holatini tashxislash;
- ultratovush skanirlash, homilani biofizik holatini aniqlash;
- kolpositologiyani bajarish;
- qog'onok suvini tekshirish (amnioskopiya, amniosentez);
- homiladorlar qusishini davolash va profilaktikasi olib borish;
- gipertenziv buzilishlarni va uning asoratlarini intensiv davolash;
- eklampsiyada birinchi yordamini o'tqazish, asoratlar o'tkazgan ayollarni reabilitatsiya qilish;
- bachadon bo'ynini etilganlik darajasini aniqlash (Bishop shkalasi);
- tug'ruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishi, tug'ruqni zamonaviy olib borish va og'riqsizlantirish;
- boshi va chanog'i bilan kelganda tug'ruqni olib borish va bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish, partogramma to'ldirish, tug'ruqning III davrini faol olib borish, yo'ldosh butunligini aniqlash;
- homila chanog'i bilan kelganda kuyidagi (Sovyanov, Lovset, Moris-Smelli-Veyt, klassik) ko'nikmalar bajarish;
- bachadon bo'ynini ko'zgularda tekshirish, tug'ruq yo'llarini yumshoq tuqimalarini tekshirish, bimanual tekshiruv o'tqazish;
- bachadon bo'yni, qin va oraliq jarrohatlarini tikish;
- postplasentar bachadon ichi vositasini (BIV) qo'yish;
- gematoma ochish amaliyotini bajarish;
- chaqaloqni Apgar shkalasi bo'yicha baholash, issiqlik zanjirini saqlashni ta'minlab berish, chaqaloq reanimasiyasini o'tqazish;
- epiziotomiya, epiziorrafiya va perineorrafiya o'tqazish;
- tug'ruqdan keyingi davrni olib borish, tug'ruqdan keyingi davrda ixtiyotiriy jarrohlik sterilizatsiyasi (ijs) amaliyotini bajarish;
- kritik holatlarni aniqlash va olib borish;
- bemorni birlamchi tez baholash va tezkor yordammi o'tqazish;
- asoratlar o'tkazgan ayollarni reabilitatsiya qilish;
- yo'qotilgan qon miqdorini aniqlash (fiziologik va patologik);
- yo'ldosh oldida kelishini va Njybkn tashxislash, olib borish va bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish;
- tug'ruqdan keyingi qon ketishini bosqichma-bosqich to'xtatish;
- yo'lodoshni qo'l bilan ajratish va chiqarish, bachadon bo'shlig'ini qo'l bilan tekshirish operatsiyasini bajarish, qorin aortasini bosish, bachadonni ikki qo'l bilan kompressiyani o'tqazish;
- pastki-o'rta laparotomiya, Djoel-Koxen va Pfannenshtil bo'yicha laparotomiya bajarish;
- uch nafar qon–tomirlarini bog'lash, B-Linch bo'yicha choklarni qo'yish jarrohligini bajarish;



- bachadon amputasiya, ekstripasiya jarroxliligini bajarish;
- gemorragik shokka qarshi kurashish, gemotransfuziyani bajarish, TTIQI-sindrom profilaktikasi va davolash;
- ona va homila ko'rsatmalariga asosan har xil usullar bilan tug'ruqni induktsiyalash (kog'onok pardalarini ko'chirish; amniotomiya o'tqazish, oksitosin va glandin E qo'llash);
- tug'ruqda og'riqsizlantirish, tug'ruqdan va jarrohligidan keyingi davrda og'riqsizlantirish;
- indusirlangan tug'ruqni olib borish;
- tug'ruqdagi homila boshi va ona chanog'ini disproporsiya xolatlarini aniqlash va olib borish;
- ko'psuvlilik va kamsuvlilikda, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy a'zolar patologik o'zgarishida, bachadon chandig'ida, muddatidan o'tgan homiladorlikda va boshqa asoratli omillarda tug'dirish;
- akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraksiya yordamida tug'ruqni tugatish;
- homilani chanog'idan ekstraksiya qilish;
- kesar kesish operatsiyasi bajarish;
- qorin bo'shlig'ini drenajlash;
- homilani emirish operatsiyasi bajarish;
- akusherlik jarrohliligida og'riqsizlantirish;
- ayollar jinsiy a'zolari kasalliklarini va reproduktiv tizim buzilish faoliyatini klinik, laborator va instrumental tashxislash va davolash;
- birlamchi va ikkilamchi amenoreya, bachadondan funktsional va organik qon ketishini tashxislash va davolash;
- jinsiy tizimning yuqori va pastki bo'limlarining yallig'lanish kasalliklarini tashxislash, TORCH – infeksiyasini davolash;
- homiladorlikning erta davrida qon ketish sabablarini aniqlash, davolash va kuzatiladigan asoratlarning oldini olish;
- ayollar jinsiy a'zolari fon va rakoldi kasalliklari, tuxumdonlar xavfsiz o'smalarini tashxislash, ularni davolash;
- laparotomiya va laparoskopiya jarrohliligini bajarish;
- funktsional tashxislash testlarni o'tkazish;
- ko'krak bezlarini palpatsiyasi, ko'zgularda ko'rik, bimanual ko'rikni o'tkazish;
- bachadon amputatsiyasi, ekstirpatsiyasi o'tkazish;
- tuxumdon rezektsiyasi, tsistektomiya, adnektomiyani o'tkazish;
- salpingektomiya, salpingostomiyani o'tkazish;
- bachadon bo'yni, qin va oraliq plastik jarrohliligini o'tkazish;
- bachadon bo'shlig'ini qirish va vakuum aspiratsiyani bajarish;
- medikamentoz abort o'tkazish;
- gisteroskopiyani, gisterosalpingografiyani o'tkazish;
- Papanikolau bo'yicha surtma olish;
- kengaytirilgan kolposkopiyani o'tkazish;
- paratservikal anesteziyani o'tkazish;
- bartolin bezi absessini, gematokolpoksni davolash;
- orqa gumbaz punktsiyasini o'tkazish;



- bachadon bo'yni polipini davolash;
- bachadon ichi vositasini (BIV) qo'yish va olib tashlash,
- ixtiyotiriy jarrohlik sterilizatsiyasi (ijS) amaliyotini bajarish.

6. Shifokor akusher-ginekologning munosabatlariga qo'yilgan talablar

Bemorlarga nisbatan munosabatda moral-etik ahloq qoidalariga amal qilish:

- Shifokor deontologiyasi
- Shifokor sirini saqlash
- Hayot tarzini o'zgartirish borasida bemor va uning oilasi uchun ma'lumot berish
- Surunkali bemorlar dinamik kuzatuv
- Kasalliklar xavf omillarini erta aniqlash va profilaktika dasturlarini ishlab chiqish
- Kasalxonagacha bosqichda tashhislash

Xodimlar bilan kollegial munosabatlar o'rnatish

- Guruhli ishlash va mehnatni tashkil etish
- Boshqa muassasa xodimlari bilan hamkorlik
- Konsultantlarni jalb etish

7. Uzlüksiz kasbiy ta'lim va shifokor akusher-ginekologning attestatsiyasi

Shifokor akusher-ginekolog o'z kasbiy bilim kunikma va bilimlarini uzlüksiz mustaqil uqish yuli bilan takomillashtirib borishi lozim. Shifokor akusher-ginekolog oliy tibbiy uquv muassasalarda, malaka oshirish institutlari tsikllarida sertifikat va/yoki guvohnoma olib uqishlari mumkin.

Shifokor akusher-ginekolog sog'liqni saqlash boshqarmalari yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tuman, viloyat, respublika boskichlarida tashkil etilgan qiska muddatli o'quv kurslari va seminarlarda qatnashib, ular yakunida sertifikat, attestat, guvohnomalar olib ishtirok etishi lozim.

Ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish maqsadida har bir shifokor akusher-ginekolog har yili audit o'tkazadi.

Muxim shifokor xududi buyicha loyixa tuzib, uning natijalari davolash kengashida muxokama kilinadi.

Xar 5 yilda shifokor akusher-ginekolog o'z malakasini tasdiqlash uchun malakaviy attestasion imtihon topshiradi.



Malaka tavsifnomasini tuzishda quyidagi hujjatlar bilan ishlangan:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019 yil 12 avgustdagi 209 sonli buyrug'i.
3. 510000 – Sog'liqni saqlash ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti.
4. Akusherlik va ginekologiya buyicha Evropa Kengashi va kollegiyasi kasbiy standarti.
5. 5A510101 - akusherlik va ginekologiya magistratura mutaxassisligi malaka talablari.

